

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
BO'ZATOV TUMANI
HOKIMINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BOZATAW RAYONI
HAKIMINIŇ
SHE SHIMI**

Bo'zatov tumani 230510, A.Temur ko'chasi, 10-uy

Bozataw rayoni 230510, A.Temur kóshesi, 10-jay

2022 - yil 13 - yanvar

9-13-216-Q/22

Bo'zatov tuman hokimligi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 20-dekabrda
213-13-0-Q/21-sonli qarori to'g'risida.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda «Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qollab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-52-sonli hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi 213-13-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Bo'zatov tumani hokimi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda «Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qollab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-52-sonli hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi 213-13-0-Q/21-sonli qarori topshiriqlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etishning hamda klasterlar tomonidan 2022-yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining oylar bo'yicha taqsimoti prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2022-yilda amalga oshiriladigan sovitkichli sig'imlar tashkil etish bo'yicha investitsiya loyihalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi malumot uchun qabul qilinsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda xususiy sektorni jalb qilgan holda kichik

agrologistika markazlarini barpo etish tartibini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlash topshirilganligi;

Moliya vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, «Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Transport vazirligi, tuman hokimliklari bilan birgalikda:

ikki oy muddatda meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar), qayta ishlash korxonalari va agrologistika markazlari uchun zarur bo'lgan tashqi muhandislik (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, avtomobil yo'llari) tarmoqlarini ta'mirlash va qurish bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirib, belgilangan tartibda tasdiqlash;

bunda, tashqi muhandislik tarmoqlarini qurish va mavjudlarini ta'mirlash uchun Osiyo taraqqiyot banking qarz mablag'larini 2022-yil yakuniga qadar jalb qilish choralarini ko'rish topshirilishi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi hamda tuman loyiha ofislariga:

iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosil beradigan bog'larni (uzumzorlarni) aniqlash, ularning o'rnida intensiv bog'lar (uzumzorlar) barpo etish yoki ularni haydaladigan yerlar toifasiga o'tkazish bo'yicha takliflar tayyorlash;

intensiv bog' va tokzorlar barpo etishga yaroqli yer uchastkalarini tanlash va ochiq tanlovga chiqarishga amaliy jihatdan ko'maklashish;

ajratilayotgan kreditlar doirasida tijorat banklari bilan birgalikda meva-sabzavotchilik yo'nalishidagi loyihalarni ishlab chiqish;

meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar va dorivor o'simliklar, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish, ularni saqlash, saralash, qayta ishlash va eksportini tashkil etishga ko'maklashish vazifalari yuklatilganligi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda:

meva-sabzavotchilik tumanlarini qayta ko'rib chiqib, har bir hududning tabiiy-iqlim sharoiti va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda, meva-sabzavotchilik klasterlari

(kooperatsiya) faoliyatini barqaror rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni;

ishlab chiqaruvchi-klaster-tayyorlovchi korxonalar qayta ishlovchi va eksportyorni uzviy bog'lovchi tizimni joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib Vazirlar Kengashiga kiritish topshirilganligi malumot uchun qabul qilinsin.

3. Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etishning hamda klasterlar tomonidan 2022-yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining oylar bo'yicha taqsimoti prognoz ko'rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limiga, tuman Moliya bo'limi bilan birgalikda ikki oy muddatda xususiy sektorni jalb qilgan holda kichik agrologistika markazlarini barpo etish tartibini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlash topshirilsin.

5. Tuman Moliya bo'limi, tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi, tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi, «Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ tuman filiali, tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar), qayta ishlash korxonalari va agrologistika markazlari uchun zarur bo'lgan tashqi muhandislik (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, avtomobil yo'llari) tarmoqlarini ta'mirlash va qurish bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirib, belgilangan tartibda tasdiqlash;

bunda, tashqi muhandislik tarmoqlarini qurish va mavjudlarini ta'mirlash uchun Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag'larini 2022-yil yakuniga qadar jalb qilish choralarini ko'rish topshirilsin.

6. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limiga:

iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosil beradigan bog'larni (uzumzorlarni) aniqlash, ularning o'rnida intensiv bog'lar (uzumzorlar) barpo etish yoki ularni haydaladigan yerlar toifasiga o'tkazish bo'yicha takliflar tayyorlash;

intensiv bog' va tokzorlar barpo etishga yaroqli yer uchastkalarini tanlash va ochiq tanlovga chiqarishga amaliy jihatdan ko'maklashish;

ajratilayotgan kreditlar doirasida tijorat banklari bilan birgalikda meva-sabzavotchilik yo'nalishidagi loyihalarni ishlab chiqish;

meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar va dorivor o'simliklar, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish, ularni saqlash, saralash, qayta

ishlash va eksportini tashkil etishga ko'maklashish vazifalari yuklatilsin.

7. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi, tuman Moliya bo'limi, tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda uch oy muddatda:

meva-sabzavotchilik tumanlarini qayta ko'rib chiqib, har bir hududning tabiiy-iqlim sharoiti va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda, meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiya) faoliyatini barqaror rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni;

ishlab chiqaruvchi - klaster - tayyorlovchi korxonalar - qayta ishlovchi va eksportyorni uzviy bog'lovchi tizimni joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib tuman hokimligiga kiritish topshirilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Ernazarov zimmasiga yuklatilsin.

**Bo'zatov tumani hokimini
vaqtincha vazifasini bajaruvchi**



Kaipov D. O.

Бўзатов туман ҳокимининг
2022 йил 13 январдаги
9-13-216-Q/22-сон қарорига
1-илова

Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etishning hamda klaster tomonidan 2022-yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarning oylar bo'yicha taqsimoti

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI.

T/r	Tuman nomi	Jami tashkil etilgan klasterlar soni	Klasterlarni tashkil etish (oylar bo'yicha)			Mavjud quvvatlar		Amalga oshiriladigan loyhalar			Loyihalarni amalga oshirish (oylar bo'yicha)		
			yanvar	fevral	mart	Soni	tonna	Soni	Quvvati, tonna	Qiymati, mln.so'm	Dekabr		
											Soni	Quvvati, tonna	Qiymati, mln.so'm
1	Bo'zатов	1		1				1	200	2100	1	20	2100